

**O'RTA OSIYO XALQLARI XVI ASRGACHA DAVRDAGI MUSIQA
ILMINING RIVOJI**

Nurullayev Farrux Gaybulloyevich

BuxDPI "Musiqa va tasviriy san'at" kafedrasi dotsenti(PhD)

Rustamov Feruz Tavakkal o`g`li

*Buxoro Davlat Pedagogika Instituti "Musiqa va tasviriy san'at" kafedrasi 1-
bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda musiqa pedagogikasining eng qadimgi davrlardan to XVI asrgacha davrdagi rivojlanishi va IX-XVI asrlarda Sharq allomalarining musiqa nazariyasi va musiqada shakllar rivoji borasida qo'shgan hissasi haqida ma'lumotlar berilgan.*

Tayanch so'zlar: *musiqa, davr, tarix, sozanda, xonanda, cholg'u, xofiz, bastakor, pedagogika, ta'lim, tarbiya, sharq, madaniyat, san'at.*

Аннотация: В данной статье представлена информация о развитии музыкальной педагогики в Узбекистане с древнейших времен до XVI века и о вкладе восточных ученых в развитие теории музыки и форм в музыке в IX-XVI веках.

Ключевые слова: *музыка, эпоха, история, исполнитель, певец, исполнительство, хафиз, композитор, педагогика, образование, воспитание, восток, культура, искусство.*

Abstract: *This article provides information about the development of music pedagogy in Uzbekistan from ancient times to the 16th century and the contribution of Eastern scientists to the development of the theory of music and forms in music in the 9th-16th centuries.*

Key words: *music, era, history, performer, singer, performance, hafiz, composer, pedagogy, education, upbringing, east, culture, art.*

Tarixiy manbalar bizga milliy musiqiy madaniyatimiz uzoq moziy bilan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bog‘langanligini eslatib turadi. Qadimshunoslar tomonidan topilgan ashovyiy dalillar, tosh devorlarga chizilgan musiqiy sozlar va sozandalar, miniatyura ko‘rinishidagi shohlar saroyidagi bazmlarda cholg‘uchilar tasviri, milliy musiqa sozlari va ijrochiligidan tarixi naqadar qadimiyligidan dalolat beradi. Jumladan, “Afrosiyob xarobalaridan surnay, doyra, ushpullaklar ham topilgan bo‘lib, eng muhimi, ushbu musiqa asboblari hozirgi shaklidan deyarli farq qilmaydi. Yoki Surxondaryoning Dalvarzintepa va qadimgi Xorazmning Qo‘yqirilganqal’a, Tuproqqal’a kabi yodgorliklaridan topilgan chang va boshqa musiqiy sozlar qoldiqlari ham dunyodagi eng qadimiyligi cholg‘u yodgorliklaridir”.¹

Kishilik jamiyatining rivojlanishi tarixida pedagogika, jumladan musiqa pedagogikasi eng qadimiyligi ham ilm, ham san’at ta’lim-tarbiyasi sohasidir. Zero, musiqa pedagogikasi tarixi nihoyatda boy ilmiy-nazariy merosga ega.

Musiqa madaniyatining qadimiyligi ildizlari yozma ma’rifiy yodgorlik “Avesto” va zardo‘shtiylik dini an’analari bilan bog‘lanib ketadi. “Avesto”da tarbiya-hayotning eng muhim tayanchi, deb hisoblangan. Insonlar paydo bo‘lganidan buyon uning tarixi doimiy ravishda tarbiya muammosini hal qilish bilan bog‘liq ekaniga guvohlik beradi. Chunki inson hayoti va turmush tarzi, xalq farovonligi, Vatan ravnaqi, jamiyat taraqqiyotining asosida tarbiya turadi. Ma’lumotlarga ko‘ra “Avesto” eramizdan avvalgi VII asrning oxiri va VI asrning boshlarida yaratilgan bo‘lib, to‘liq kitob holida eramizdan avvalgi I asrda shakllangan”²

Qadimiyligi va boy tarixga ega o‘zbek milliy musiqa madaniyatini targ‘ibotini amalga oshirish ushbu soxa ta’lim- tarbiyasi bilan maxsus shug‘ullanish maqsadida asrlar davomida mukammal musiqa maktablari mukammal tarzda shakllangan hamda rivoj topib kelgan. Bu maktablarda musiqa ta’lim tarbiyasi bevosita va bilvosita amalga oshirib borilgan bo‘lib, ularning faoliyat mazmunida musiqa haqiqiy ma’nodagi tarbiya vositasi ekanligi o‘z ifodasini topgan.

Tarixiy manbalarda IX-XII asrlarda O‘rta Osiyo musiqiy madaniyatida

¹ Shirinov T.Sh.. Tariximiz etyudlari. – Toshkent. “Sharq”.- B. 336.

² . Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. Toshkent. “O‘qituvchi 1996. –B. 13..

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o‘zgarishlar davri bo‘lganligi bayon etiladi. Biroq, bu davrlarda ijod qilgan sozandalar, hofizlar va bastakorlarning nomlari hamda ularning ijodiy faoliyatları haqida juda kam ma’lumotlar saqlanib qolingan.

Sharq, jumladan Markaziy Osiyo musiqa san’ati va madaniyati, uning an’analari qadimiy tarixga ega. Sharq xalqlari an’anaviy-kasbiy musiqasi asoschisi sifatida ulug‘langa musiqashunos, bastakor, xofiz va shoir Borbad Marvaziy (yoki Faxlobod) VI-VII asrlarda o‘zining musiqa mifiktabini yaratdi. Eron shohi Xusrav Parviz saroyida xizmat qilgan Borbad xalq kuylarini maxorat bilan ijro etish, xofizlik qilish bilan birga yosh musiqachilarining ta’lim-tarbiyasi bilan ham jiddiy shug‘ullangan. Tarixchi olimlarning yozma manbalariga asoslangan holda fikr yuritsa, jumladan, VI-VII asrlarda yashab ijod etgan ilk kasbiy musiqashunoslardan biri O‘rtta-Osiyolik Borbad xaqida ma’lumotlarda uni musiqa san’atining asoschilaridan bo‘lib, bastakorlik, shoirlik, sozandalik va hofizlik borasida tengi yo‘q mashhur san’atkor bo‘lganligi ta’riflanadi. Borbad qator madhiya va tarixiy qo‘shiqlar, harbiy mavzudagi taronalar ijod etgan. Shunisi muhimki, Borbad xalq kuylari asosida o‘sha davrda kasbiy musiqachilik an’anasini boshlab bergen, ijrochilik mahoratida yuksak salohiyatga erishgan san’atkor edi.

Shu bilan birga Borbad “Ustoz-shogird” an’anasini boshlab bergen murabbiy ham bo‘lgan. Sosoniylar sulolasi (milodiy 224-651yy) davrida kasbiy cholg‘uchi-sozandalardan Noqus, Romtin, Sarkab, Sarkash, Navogar va boshqalar Borbad musiqa maktabida saboq olib, so‘ngra uning an’analarini yuksak san’at, mahorat, iste’dod bilan davom ettirganlar.

IX-XII asrlarda Movarounnahrda madaniyat, ilm-fan, san’at va adabiyot Islom madaniyati yo‘nalishida rivojlandi hamda taraqqiy etdi. Bu davrda Ahmad al - Farg‘oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ismoil al-Buxoriy, At-Termizi, Abdullo Ro‘dakiy, Abdulqosim Firdavsiy, Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Najmuddin Kubro kabi yuzlab fozil-donishmandlar yashab, ijod qildilar. Zabardast daholar-jahon ilmi, madaniyati yulduzlar qoldirgan ulkan meros hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Donishmandlarning falsafiy-estetik qarashlari ta’limotlar tarzida shakllanib, borliqni

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

mushohada etishda, nafosat (estetik) qadriyatlarni baholashda, inson ma'naviy kamolotida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Sharq allomalari musiqa ilmi rivojlanishiga IX-XVI-asrlarda, ayniqsa musiqa nazariyasi va musiqada shakllar masalasi muammolarini yechish borasida ulkan hissa qo'shdilar. Musikashunoslik, uning nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanib ulkan tarixiy musiqiy-pedagogik meros qoldirdilar. Jumladan, X asrning buyuk qomusiy olimi, musiqashunoslik fanining ulug' kashfiyotchisi Abu Nasr al-Forobi (873-950) bo'lib, uning musiqa sohasida yaratgan ta'limotlari asosida Yevropa olimlari ham qator asarlar yaratganlar.

Abu Nasr Farobi (to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad Uzalik ibn Tarxon al-Forobi) (milodiy 873 yil) da Shosh-Toshkentga yaqin Forob (O'tror) degan joyda harbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan. Forobda boshlang'ich ta'limni olgach, Shoshda, Buxoroda, Samarqandda ta'lim olganligi haqida ma'lumotlar bor. Farobi Bog'dodda matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, tabiiyot, huquq, tishunoslik bilan shug'ullangan. Avval O'trorda, bo'lib, so'ngra Bog'dodga borib unda falsafa, tabiiyot, musiqa fanlari bilan chuqur shug'ullangan. O'rta asr falsafiy fikr taraqqiyoti mutaffakkir Abu Nasr Forobi nomi bilan bog'liq bo'lib, uning inson kamoloti haqidagi ta'limoti ta'lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

- 1.H.Nurmatov."Musiqa va estetik madaniyat-Toshkent.T.D.P.U.1995 yil
- 2.O'quvchilarda musiqiy-nafosat tarbiyasini shakllantirish yo'llari.T: 1992 yil.
3. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
4. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
5. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
6. F.G.Nurullayev O 'QUVCHILARGA BOLALAR FOLKLOR QO

'SHIQLARINI O 'RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. PEDAGOGLAR
INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL Vol. 75 No. 1, 2025. 148-152

7. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.
8. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор қўшиқларига қўйиладиган методик талаблар. Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, 3-son. Buxoro. Б.175-180.
9. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
10. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139-141.
11. Nurullayev F.G., Madrimov B.K., Rajabov T.I. Teaching Bukhara Children Folk Songs in Music Lessons as an Actual Problem. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 04, 2020 P. 6049.
12. Нуруллаев Ф.Г., Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса//«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 588-593.
13. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор қўшиқларини ўргатиш жараёнини лойиҳалаш. Бухоро мусиқа фольклорининг тарихий-назарий ва амалий масалалари. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. 2020 йил, 6 ноябрь. Бухоро, 2020- Б. 107-111.
14. Нуруллаев Ф.Г. Из истории смычковых инструментов у мастеров Амати Николо, Гварнери и Страдивари. Материалы международного научно-творческого форума. Часть 1- Челябинск, 2016.-С.158-159
15. Нуруллаев Ф.Г. Особенности и условия развития творческих музыкальных

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

способностей детей. Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. г. Ярославль, Выпуск №17, 2018. – С.125-128.

16. Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folkler music in the upbringing of children of preschool age. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.10, Issue 10, October 2020.

17. Xujayev Dilmurod Bakiyevich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich-
MAVRIGI VA BUXORCHA KONSEPTSIYASI TAMOYILLARI BUXORODA QAROR TOPISHI, International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 2024/4/30,Tom-5,1, 515-520 betlar

18. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN:2181-1601, 2021.pp.570-575.

19.Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся// Научно – методический журнал «Проблемы педагогики». №3 (48). - Москва 2020.- С.15-17.

20. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children.European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612 Accepted 14 May2022.

21. F.Nurullayev. “Musiqa ta'limida Buxoro folklor qoshiqlarini orgatishning ilmiy-metodik xususiyatlari”-(PhD) Diss.ishi. 2021y

22.Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.

23. Нуруллаев Ф.Г. Содержание обучения бухарским народным песням в музыкальном образовании// Academy, № 3 (66), 48-50, ООО «Олимп».

24. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Моделирования педагогических с музыкальным уклоном действие объектов через математический аппарат в педагогике// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.589-595.

25. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Интерактивные уроки музыки по программы STEAM// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL,

ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.595-602.

26. Нодира Каримовна Нуруллаева. Методические аспекты музыкального образования, особенности обучения народных песен в 5-7 классах// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.957-963.

27. Istatov Muhriddin Qaxramonovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich-
MUSIQIY TOVUSHLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA CHOLGU ASBOBLARIDA JOR BOLISH USLUBLARI. International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA
<https://confrencea.org> January 30th, 2024, Confrencea 1 (1),74-78

28. F.G. Nurullayev, Firdavs To‘xtayev-MUSIQIY TOVUSHLARINING XUSUSIYATLARI TENDENTSIYALARI. Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2024/12/1,Tom-2,12, 8-15 betlar

29. F.G.Nurullayev, Xasanova Gulchehra Saidovna-FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH THE MEANS OF UZBEK FOLK SONGS, International journal of artificial intelligence, ISSN: 2692-515X 2024/11/3

30. Egamov O.S., Nurullayev F.G.,BUXORO VOHASI FOLKLOR QO ‘SHIQ LARI O ‘ZBEK XALQINING BOY MEROSI SIFATIDA. Confrencea, 1(1), 2024.123–130.R. <https://confrencea.org/index.php/confrenceas/article/view/1207>